

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA RAHBAR OBRAZINING PSIXOLOGIK IFODASI

Ochildiyeva Adolat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail: adolat.ochildiyeva150497@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, mustaqillik davrida, istiqlol yillarda o'zbek asarlarida kelgan rahbarlarning psixologik obrazlarining badiiy ifodalari va jahon adabiyotlarida ham kelgan ifodalar haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: istiqlol yillari, rahbar obrazi, badiiy asarlar, hikoyalar, jahon adabiyotlari, psixologik faoliyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ЛИДЕРА В УЗБЕКСКОМ ПОВЕДЕНИИ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Ochildiyeva Adolat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail: adolat.ochildiyeva150497@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются художественные проявления психологических образов лидеров в узбекском творчестве периода независимости и лет независимости, а также проявления в мировой литературе.

Ключевые слова: годы независимости, образ лидера, художественные произведения, рассказы, мировая литература, психологическая деятельность.

PSYCHOLOGICAL EXPRESSION OF THE IMAGE OF A LEADER IN UZBEK BEHAVIOR DURING THE INDEPENDENCE PERIOD

Ochildiyeva Adolat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
E-mail: adolat.ochildiyeva150497@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the artistic manifestations of psychological images of leaders in Uzbek creativity during the period of independence and years of independence, as well as manifestations in world literature.

Key words: years of independence, image of a leader, works of art, stories, world literature, psychological activity.

Mustaqillikga erishganimizdan buyon adabiyotshunoslarimiz juda ko‘p hikoya, qissa va asarlarni yaratishgan, ularda turli obrazlar doim foydalanilgan. Ayniqsa, asarlarni o‘qir ekanmiz obrazlar bilan tanishib borib hammasi ham mukammal yaratilmaganiga guvoh bo‘lamiz. Asarlarda ayol va erkak obrazlari, turli kasb egalarining obrazlari, oddiy xalq a’zolarining obrazlari ko‘zdan kechirilganda yozuvchi doimo jamiyat ichidagi muammolarni hal etish uchun bir-ikki muammolarni olib chiqgan bo‘ladi, u obrazlar esa ana o‘sha yechimga muhtoj muammolar hisoblanadi.

Biz taqdim etmoqchi bo‘lgan obraz esa “rahbar” obrazi. Quyida berib o‘tilgan ifodalar rahbarga tegishli hisoblanib hayotdagi rolini ko‘rib chiqamiz.

Dunyo tan olgan, qomusiy aql sohibi, ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘sghan, Arastuning benazir ilmiy qarashlari, yunon donishmandligi maktabi asoschilaridan biri, boshqaruvning inson tarbiyasiga ta’siri borasidagi nazariyalarni ilgari surgan Abu Nasr Farobi (873-950) tadqiqotlari alohida o‘ringa ega. Alloma boshqaruvni “iste’dod va malakasiga qarab, har bir kishiga munosib vazifa berish orqali ulardan(qo‘l ostidagi odamlardan) samarali foydalana olish qudrati”, - deb e’tirof etadi. Mutafakkirlarning fikricha tahlil va qiyoslash, doimiy kuzatish-boshqaruvning, boshqaruvchining asosiy vazifasidir. Mana shu asos allomaning “Ruhni tarbiyalash va poklash muttasil davom etsagina, yaxshi amallarga erishish mumkin”, - deb e’tirof etishiga sabab bo‘lgan.

Rahbar bilishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar unga yuklatilgan vazifalarga qarab kelib chiqishi ham mumkin, asosiy ko‘nikmalar – korxona faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlarni bilishi va ular bilan bemalol ishlay olishi, shaxslararo muloqot va odob-axloq asoslariga doimo rioya qilish va qo‘l ostidagilarga o‘rnak bo‘lishi, kasbiy jihatdan kelib chiqib terminalogiyaga ega bo‘lishi, yong‘in xavfsizligiga qat’iy riox qilishi, hisobot va ichki hujjat shakllari, qoidalarini aniq bilishi, korxonaning ish tartibini doimo yodda tutishi, uniformlarni qat’iy belgilashi va albatta mehnatni muhofaza qilish qoidalarini, normalarini bilishi zarur. Rahbar ma’sulyatida doim juda ko‘p majburiyatlar bo‘ladi, ana shu majburiyatlarni u sidqidildan barajarishi lozim. Rahbarning o‘z ishini ma’sulyatli bajarishi - bu uning psixologik faoliyatini ham o‘z o‘rnida ekanligini anglatadi. Asarlarda doimo rahbarlarni psixologik ifodalari uchraydi, ularni obrazga moslashtirish esa yozuvchining mahoratiga bog‘liq.

Farobiyning boshqaruv borasidagi qarashlari haqida fikr yuritar ekanmiz, yana bir davlat arbobi, buyuk sarkardaning ham boshqaruv borasidagi jahonshumul islohotlari orqali dunyo harbiy va boshqaruv siyosatida katta maktab yaratganiga guvoh bo‘lamiz. Xalqning boshqaruv tizimini shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish tizimi va amaliyotini yaratgan yorqin siymolardan biri - Hazrati Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir o‘g‘li (1336-1405) qoldirgan beba ho ilmiy, ma’naviy meros

musulmon sharqining beباھو xasinasidir. Yevrosiyoning 27 davlatida adlu imon bilan hukmfarmonlik qilgan Amir Temurning “Temur tuzuklari” o‘z davrining Bosh qomusi bo‘lganini tarix tasdiqlaydi. Jamiyatda boshqaruvning katta muammolaridan tortib, eng mayda taraflarigacha tahlil qilingan, qiyoslangan mazkur asar mana asrlardan asrlarga zeb berib ta’riflanadi, mana man degan mutaxassislarning e’tirofiga sazavor bo‘laveradi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Bizning tariximizda Amir Temurdek ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandnasihatni bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta’riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q”, - deb yozgan edi.

Biz asl rahbar qanday ekanligini Amir Temurdek buyuk insonda ko‘ra olishimiz mumkin, u haqida fikrlar, asarlar qadimda, hozirda va kelajakda ham yana va yana yaratilib boraveradi. Buning sababi shundaki qaysidur asarda rahbar obrazini yaratish uchun qaysidur siyosiy arbobning tarixini, siyosiy faoliyatini o‘rganish zarur bo‘ladi, shuning uchun ko‘p yozuvchilar kuchli rahbar obrazini olib chiqish doimo Amir Temurning faoliyatini bitishga o‘rganganlar, chunki undan boshqa rahbarlik obraziga tushuvchi insonlar kam va topish mushkul. U bizning bobokalonimiz, siyosiy qarashlari tufayli, strategiyalar tufayli juda ko‘p yerkarni bosib olgan edi. Bizning hozirgi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham Amir Temur faoliyati yozilgan asarlarini o‘qishni hush ko‘radilar, bundan ma’lumki xatto prezidentlar ham sohibqironimizning qo‘llagan barcha strategiyalarini o‘rganib chiqadilar.

Abdulla oripov haqida barchamiz bilamiz, uning asarlari turli tillarga tarjima qilingan bo‘lib, u yozgan “Sohibqiron” dramasi ham juda ma’lum va mashxurdir. Uning bu dramasidagi Amir Temur obrazi katta iftixon bilan qalamga olingan. To‘g‘ri, Amir Temur haqida juda ko‘plab badiiy asarlar yaratilgan. Ammo Abdulla Oripov ana shu asarlarda ifodalangan mazmun, obraz va tashbihlarni takrorlamagan. Amir Temurning dramada mehnat ahliga, askarlariga, san’at ahli, farzand va nabiralariga mehri va g‘amxo‘rligi bilan birga qattiqqo‘lligi,adolatparvarligi aks ettirilgan. Buning yorqin dalili drama boshlanishidagi Temur va sartarosh suhbati. Abdulla Oripov bu sahnani shunchalar mohirlik bilan chizganki, goho mehribon, goho qaxri qattiq Amir Temur o‘z saltanatidagi oddiy lavozim egasidan to eng yuqori lavozim sohibigacha samimiyy suhabbatdosh, hatto do‘stona munosabatda bo‘lganligini nozik bo‘yoqlarda chizib bera olgan. Balki, shuning uchun ham shoir o‘z dramasining boshlanishida Temurdek buyuk hukmdorni kazo-kazolar davrasida emas, balki oddiy bir sartarosh suhabatida tasvirlaydi: Temur: “Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh Senga ko‘ngil ochsam bo‘lar ...” Sartarosh: “Qulluq, Hazratim”. Dramada Amir Temur obrazi tilidan keltirilgan bu so‘zlardan anglash mumkinki, u oddiy insonlar orasidan ham o‘ziga do‘st topa olgan.

Abdulla Oripov voqealar chizgisini shunchalik mohirlilik bilan bir ipga tizadiki, bu aynan Temurning psixologik tasvirini, ruhiy holatini yaratishda, uning ichki dunyosini ohib berishda muhim rol o‘ynaydi. Sartarosh va Temur suhbatidan keyin voqealar rivoji yana bir pog‘ona jiddiy tus oladi, yana bir pog‘ona jadallahadi. Unda Amir Husaynning qabihliklari yorqin ohib berilib, Temurning oliyjanobligi va kechirimliligi bilan zidlanadi. Drammada tasvirlanishicha, Husaynn Kalomullohni o‘rtaga qo‘yib qasam ichadi, ammo va’dasida turmaydi. Shunday qaltis vaziyatlarda ham Temur kechirimli bo‘ladi. Dramada Sirdaryo bo‘yidagi bo‘lib o‘tgan Jetega qarshi jang yodga olinadi. Temur tilidan keltirilgan misralarda Husayn jang mag‘lubiyatiga sabab bo‘lgan shaxs sifatida qoralanadi: “Lashkarini siylamagan sen – xasis amir Ust-boshi ho‘l holdan toygan sening lashkaring Och-u nahor bo‘lgani-chun ortga chekindi”. Amir Temur bu jangda Husaynga tajriba va bilim yetishmaganini aytadi. A.Oripov xuddi shu mazmunni Temur nutqiga shunday mohirlilik bilan olib kiradiki, bugungi kunda uni yoshlarga tarixiy o‘rnak va chaqiriq sifatida ko‘rsatsak arziydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, rahbarlar turli yo‘nalishlarga qarab, turli bo‘ladilar. Rahbar qanday turdagи rahbar bo‘lishidan qat’iy nazar u doimo yetakchi sifatida ko‘rilgan. Doimo rahbarga malakasi ustida talablar qo‘yilgan, oliy kasbiy jihozlar va mutaxassislik bo‘yicha kamida 1 yil tajribaga yoki o‘rta kasbiy ta’lim va mutaxassislik bo‘yicha kamida 3 yil ish tajribasiga ega bo‘lishi zarur, unga manashunday talablar qo‘yiladi. Badiiy asarlarda ham rahbar shunday obrazlarda gavdalantiriladi. A.Oripov “Sohibqiron” she’riy dramasida Temur timsolini yaratar ekan, uni zamon va makon, tarixiy muhit va sharoit, inson va insoniy fazilatlar qamrovidan uzib olib tasvirlamaydi, balki shaxs sifatida insoniy fazilatlarga, qarashlarga ega, o‘z yashagan davrining asl farzandi sifatida gavdalantirib, go‘zal chizgilar bilan qalamga oladi. Dramaning har bir sahnasida betakror shoir Temur obrazini yaratishda unga yangidan–yangi chizgilar berib, yangi tashbehtar, rangdor badiiy buyoqlar bilan boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abu Nasr Farobi. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. Yangi avlod. 2016. 284- bet
2. Oripov A. Sohibqiron. Drama. –Toshkent. Yangi nashr. 2019.
3. Keren L. Amir Temur saltanati. –Toshkent. Fan nashriyoti. 2018.
4. Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Toshkent. Yangi asr avlod. 2005.
5. Madaniyat muassasasi badiiy rahbarining faoliyati. Badiiy rahbar lavozim tavsifi. <https://gigafox.ru/uz/deti-do-goda/deyatelnost-hudozhestvennogo-rukovoditelya-uchrezhdeniya-kultury-dolzhnostnye-instrukcii-hudozhestvenno/>